



**JAMIYATDAGI KAMCHILIKLARNI KO'RSATGAN-
KOMEDIYA SHAROF BOSHBEKOV**

Rajabova Sarvinoz Burxon qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti turkey tillar
fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-57>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2023

Accepted: 23th February 2023

Online: 24th February 2023

KEY WORDS

Sharof Boshbekov, "Temir
xotin", yumor, fojia, komediya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Temir xotin" komediyasining g'oyaviy mazmuni, o'sha davrda va hozirgi kunda o'zbek xalqiga bo'lgan munosabat va o'zbek erkaklarining o'zbekona xulq-atvori haqida so'z yuritilgan.

Erk! Naqadar ajoyib tushuncha. Hozirgi kunda hammaning erki o'z q o'lida. Har kim o'zi xohlaganday yashashi, o'y- fikr yuritishi va o'zi xohlagan ishlarni qilishi mumkin. Bugungi kunda inson qadri xohish- istaklari birinchi o'rinda turadi. Ammo shunday davrlar bo'lganki, insonlar o'z qadrini bilmagan, faqat mehnat va ishdan ortib o'zlari uchun yashashni bilishmagan. Bunga misol qilib Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asarini keltirish mumkin. "Temir xotin " asari xuddi shunday davrda yozilgan. Asarni o'qigan odam undagi davrni, muhitni qanchalik achinarli ekanligini sezib turadi. Undagi gap jiddiy, ammo so'zlar va vaziyat kulgili. U hozirgacha tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Ushbu asarda jamiyatimizdagi kamchiliklar hazil- mutoyiba orqali ko'rsatib berilgan. Masalan, Qo'chqor mehnatkash qora xalq vakili bo'lib, umri dalada o'tsada , "kosasi oqarmaydigan" insonlardan bo'lgan. Komediya boshida Qo'chqor hovlisidagi kamchilik, yetishmovchiliklar bejiz keltirib o'tilmagan. Albatta bular ham o'sha zamondagi oilaviy sharoitlarni , insonlarning turmush tarzi qanday ekanligini bildirib turadi. Sharof Boshbekov bu asar bilan o'sha zamon kayfiyatini mahurat bilan tasvirlangan. Bu albatta dramaturgning mohir ijodkor ekanligini anglatadi. " Temir xotin" asarini o'qigan kishi albatta o'sha davr bilan hozirgi davrini solishtirib kengroq fikr yuritadi. Jumladan, avvalgi davrda majburiy paxta terimi joriy etilgan, shuning uchun insonlar o'zi uchun kamroq vaqt ajratishgan. Bugun esa o'z ustimizda ishlash, o'zimiz uchun yashash uchun imkoniyatlar ko'lami keng.

Asardan seziladiki, undagi qahramonlar ichidan o'tgan o'y-hayollarini baralla ayta olmaydi, o'zini hammasi yaxshi ekanligiga ishontiradi. Biz esa hozir o'z fikrimizni jamoatga keng tadbiq eta oladigan zamondamiz. Albatta bugungi zamonamizda barcha o'z haq - huquqini biladi va har kim uchun birdek keng imkoniyatlar ochilgan. " Temir xotin " komediyasi badiiy saviyasi va estetik qimmatini jihatidan nafaqat Sharof Boshbekov, balki o'zbek dramaturgiyasida betakror asar sanaladi. Asarda haqiqiy o'zbek xalqining turmush tarzi yaqqol aks etgan. Asarning boshidayoq Qo'chqorning ro'zg'oridagi barcha narsada yetishmovchiliklar borligi aks ettiriladi. Komediya boshida qahramonning arqon bilan bog'lab qo'yilganidan uning tutqun, erkdan mahrum kishi ekanligi sezilib turadi. Qo'chqorning ayoliga



qilayotgan muomalasi yo'sinida o'zbek oilasidagi o'zaro munosabatlar hayotiy aks etgan. Qo'chqor ko'pchilik o'zbek erkaklari kabi ayoliga tepadan kelib muomala qiladi. Ayni shu jihat bu timsolning milliyligi va hayotiylikini ta'minlaydi. Qo'chqorning sodda, dovdur, ayni paytda, topqir, chapani, so'zamol, hazilkash va maqtanchoq odamligi uni kitobxonga yoqimliroq ko'rsatadi. Bu asarda yana bir narsani bilish mumkin. Ushbu asar qahramon shaxsiyatiga xos jihatlarni ko'rsatishi bilan ham e'tiborni tortadi. Ichib to'polon qilgani uchun bog'lab qo'yilganini bilgan Qo'chqorning ayoli Qumriga aytgan ushbu gaplari bunga misol bo'ladi: "Bo'pti, kechirdim, qo'lni yech". Aslida bu gap uning o'sha paytdagi holatiga mutlaqo mos kelmaydi. Asarda qahramonning gapga chechanligi ham ko'zga tashlanadi. Jumladan "Qo'chor ekan deb bog'lab tashlayveradimi ? ",- degan so'zi uni yana bir xarakterini ochib bergan. O'zbekona o'y- fikr, milliy ruhni namoyon etish qahramonlarning har bir gapi hamda xatti-harakatlarida ko'zga tashlanib turadi.

Biz komediyadagi Qo'chqor timsolida haqiqiy xalqparvar kishilarning bir vakilini ko'rishimiz mumkin. "E-e, unda siz ham o'zimizning mahalliy hokimiyatga o'xshagan gap ekansiz- da. Ular ham na dardingga sherik bo'ladi, na xursandchiligingga. Nomi "mahalliy " bo'lgani bilan, bilmayman, narigi mahallaga qaraydimi...". Qo'chqorning Alomat bilan bo'lgan ushbu suhbatida hazil aralash achchiq haqiqat bor. Darvoqe, Qo'chqor nutqidan yana bir narsani sezish mumkinki, uning xarakterida haqiqiy o'zbek erkaklarida bo'lgan g'urur, mag'rurlik bor. U kishilarni o'ziga achinishini xohlamaydi. Shuning uchun ham, u Alomatning yonida yig'lab ko'zyosh to'kishni o'ziga ep ko'rmaydi. Qo'chqorning o'g'li Turobjonga qarata aytgan quyidagi gaplaridan uni boshqalarning yonida bechara hol va ilojsiz ko'rinishni xohlamasligini tushunish mumkin. "... buvingnikiga ko'chib ketadigan bo'lsak, uyni tashlab ketamizmi, orqalab olib ketamizda , o'g'iltay. Hozir, birpas nafas rostlab olay, keyin "yo pirim" deb ko'taramiz- u ketaveramiz". Aslida u o'g'lining oldida uyalib qolmaslik uchun ham shunday deyishga majbur bo'ladi. Qo'chqorning boshqa nutqlariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda o'sha davrda o'zbek xalqiga qanday munosabat qilinganligini bilish mumkin. "Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman. Doim shu, bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi" so'zlari aynan shu jihatni ochib bergan. Bunda o'sha davrda xalqimiz qanchalik ayanchli ahvoldaligi aks etgan. Qo'chqor nutqidagi o'ziga xoslik qahramonning ichki dunyosini anglatishga xizmat qiladi.

Ushbu asar yozilgan vaqtlarda rostdan ham jamiyatimizda talay kamchiliklar bo'lgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'sha paytlarda inson qadri ikkinchi o'rinda bo'lgan. Birinchi o'rinda esa mehnat va ish turgan. O'sha paytlarda insonlar ham ancha sodda bo'lishgan. "Temir xotin" asari mana shu sodda xalqimizni turmush tarzini qisqacha va tushunarli qilib ko'rsatib bergan. Bugungi zamonda insonlarning orzu- havas, qiziqishlari, xalqimizning haqiqiy mehnatkash vakillariga bo'lgan munosabat ancha yaxshi. Ularning har bir qilgan ishi taqdirlanadi. " Temir xotin " nafaqat Sharof Boshbekov asarlarining , balki o'zbek dramaturgiyasining topilmas durdonasidir. Komediya o'zbek oilalarining turmush tarzi, hayotining namunasidir. Unda sodda, chapani, hazilkash, eng muhimi elim, xalqim deb yurgan mehnatkash o'zbek insonlari tasvirlangan. Asarda o'zbek xalqining hayotidagi, turmush tarzidagi kamchiliklar hazil-mutoyiba orqali ko'rsatib beriladi. Komediya sodda va ravon tilda yozilgani uchun ham barcha uchun tushunarli va qadrdondir. Ayniqsa asarda yumor eng asosiy rolni egallaydi va asarni barcha uchun birdek qiziqarli va yoqimli qiladi. Bu asarni



o'qigan har qanday inson ikki davrni taqqoslashga tushib ketadi. Bu asar shunday jonli yozilganki, asarni o'qigan barcha uni ko'z oldiga keltiradi. Hozirgi zamonamizga shukronalik bildiradi. Albatta biz shunday ajoyib davrda yashayapmiz. Biz uchun hamma sharoitlar yaratib berilgan, biz ushbu asar qahramonlaridek ilmsiz, qoloq inson bo'lib qolmadik. Jamiyatda o'z o'rnimizga egamiz. "Temir xotin" asarini o'qimagan kishi ota - bobolarimiz qay ahvolda kun kechirishganini, qanday tazyiqlarga chidaganini bilmaydi. "Temir xotin" asari Sharof Boshbekovga misli ko'rilmagan yutuqlar beradi. Asar 1989-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Shayxzoda nomidagi yillik mukofotiga loyiq topiladi.

References:

1. Adabiyot 9-sinf darslik Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Toshkent- 2019.
2. Saviya.uz.
3. www. Ziyouz. Com